

## AHOLI VA HUDUDLARNI HARBIY XARAKATLAR VAQTIDA VA ULAR OQIBATIDA VUJUDGA KELADIGAN XAVFLARDAN MUXOFAZA QILISH.

*Andijon FVB Hayot faoliyati xavfsizligi  
o'quv markazi o'qituvchilari  
Ro'ziyev Akmal Nosirdjonovich  
Hamraboyev Ihomjon Sotvoldiyevich*

**Annotatsiya:** Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ular sodir bo'lganda talofatlarini mumkin qadar kamaytirish maqsadida ob'yektlarda Fuqaro muhofazasi boshliqlari kimyoviy, radioaktiv, portlash xavfiga qarshi maxsus tuzilmalar tuzadilar.

**Kalit so'zlar:** evakuatsiya, aloqa, me'yor, sog'lomlashtirish, favqulod.

**Abstract:** In order to prevent emergency situations and to reduce their losses as much as possible when they occur, the heads of Civil Protection create special structures against chemical, radioactive and explosion risks.

**Key words:** evacuation, communication, norm, rehabilitation, emergency.

**Аннотация:** В целях предотвращения чрезвычайных ситуаций и максимального снижения их потерь при их возникновении руководители Гражданской защиты создают специальные структуры против химической, радиоактивной и взрывоопасной опасности.

**Ключевые слова:** эвакуация, связь, норма, реабилитация, чрезвычайная ситуация.

Aholini tinchligi muhofaza qilish bilan bir qatorda notinch vaziyatlarga doimo shay xolda turishimiz, aholini harbiy xarakatlar olib borish paytida yoki shu xarakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan ximoya qilish kerakligini davrni o'zi ko'rsatib turibdi. Oldimizga qo'yilgan vazifalarni to'la va sifatli bajarish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Fuqaro Muxofazasi to'g'risidagi qonuni 2000 yil 26 mayda qabul qilindi.

Ushbu qonuning 2 moodasida Fuqaro muxofazasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab qo'yilgan.

Aholini harbiy xarakatlar olib borish paytida yoki shu xarakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan ximoya qilish ,ob'yektlarni harbiy xarakatlar olib borilayotgan paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash. Boshqaruv organlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkail etish, rivojlantirish va shay xolatda saqlab turish, xalq xo'jalik ob'yektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan kompleksli tadbirlarni o'tkazish. Aholini va moddiy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish. Fuqaro muzofazasi tuzilmalarini shayligini oshirish va tayyorgarlikdan o'tkazish.

Axolini harbiy xarakatlar olib borish paytidagi yoki shu xarakatlar oqibatida xayot faoliyatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligining bu boradagi me'yoriy hujjatlari, ko'rsatmalari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligining bu boradagi me'yoriy hujjatlari, ko'rsatmalari nafaqat aholini turli noxush vaziyatlardan muhofaza qilish, balki Vatanimiz hududlarini muhofazalash,

sogʻlomlashtirish, muqaddas zaminni asrab-avaylashdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, roʻy berishi mumkin boʻlgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bashoratlash, talofatlarini kamaytirish va sodir boʻlgan noxush vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish yoʻllarini huquqiy belgilab beradi. Hozirgi zamon xalqaro mezonlari davlatlararo bahoni yechish quroli sifatida urushni aslo tan olmaydi. Milliy siyosat jabhasida ham urush nokerak narsadir. BMT ustavida shunday yozilgan: «BMT xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni taʼminlash, kollektiv xavfsizlikka erishish choralari koʻradi, tinchlikka putur etuvchi har qanday holatlarni oldini olib bartaraf etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti adolat va xalqaro huquq asosida tinch usullar bilan barcha xalqaro baholar va vaziyatlarni hal qiladi».

Shuni alohida taʼkidlash joizki, aholi va hududlarni muhofaza qilish, xavfsizligini taʼminlash birgina vazirlik yoki bitta sohaning muammosi boʻlib qolmay, u umumxalq muammosi boʻlib, ezgu maqsadlarga erishishda aholining barcha qismi yoppasiga harakat qilishi lozim.

Favqulodda vaziyatlar sodir boʻlganda uning oqibatlarini bartaraf etishda FVDT (Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi) organlari quyidagi tizimlari harakat qiladi:

- fuqaro muhofazasi qoʻshini;
- toʻgʻridan - toʻgʻri tezkor boʻysinish roʻtasi;
- favqulodda vaziyatlar vazirligining shaxsiy va tezkor respublika maxsuslashtirilgan koʻp tarmoqli tuzilmalari;
- tez harakat qilish respublika koʻp tarmoqli markaz (THQRKTM);
- tezkor harakat qilish kuchlari va mablagʻlar;
- yongʻindan saqlash xizmati (bu xizmat xodimlari faqat yongʻin sodir boʻlgandagina emas, balki yer koʻchishi, suv toshqinlari va boshqa tusdagi favqulodda vaziyatlar natijasida jabrlanganlarga yordam koʻrsatadi);
- Sogʻliqni saqlash vazirligida - tezkor vaziyatda tibbiy yordam markazi;
- “Oʻzavtoyol” konserni (respublikaning har qanday joyiga 3 soat vaqt mobaynida aholini evakuatsiya qilish va yoʻllarni tozalash ishlarini olib borish uchun avtomobillar bilan taʼminlaydi);
- tegishli vazirliklar va boshqarmalarning avariya - qayta tiklash ishlari boʻyicha harbiylashgan va maxsuslashtirilgan boʻlinmalari;
- Favqulodda vaziyatlar vazirligining joylardagi (Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimiyatlari) qoshida tashkil etilgan qutqarish xizmatlari;
- obʻyektlardagi maxsus tuzilmalari FVV qurilish muxandislik batalyonlari ;
- hududiy va obʻyektlardagi harbiylashtirilgan umumiy va maxsus vazifaga ega boʻlgan tuzilma;
- respublika “Qizil yarim oy” va “Vatanparvar” jamiyatlarining koʻngilli guruhlari;
- fuqaro muhofazasi qoʻshinlari (Favqulodda vaziyatlar vazirligiga birlashtirilgan boʻlib, yirik muhim muhofaza va ishlab chiqarish obʻyektlarida favqulodda vaziyatlarni oldini olish, sodir boʻlganda oqibatlarini bartaraf etish ishlarini olib boradilar. Bu qoʻshin urush va tinchlik vaqtida maxsus texnika, jihozlar, tayyorlangan kadrlar talab qiluvchi katta miqyosdagi avariya, halokatlar, iqtisodiy holatlarda avariya-qutqarish va boshqa tiklash chora-tadbirlarda faoliyat koʻrsatadi);

Favqulodda vaziyatlar vazirligi respublika maxsuslashtirilgan tuzilmalari avariya-

qutqarish va avariya-qayta tiklash doimo shay holatda turadigan ko‘p tarmoqlarni tuzilmalarni o‘z ichiga olib, yuqori malakali maxsus kasb egalaridan tashkil topgan. Bundan tashqari maxsus harbiy asbob-uskunalar, zamonaviy texnikalar va texnika vositalari va 72 soatlik shoshilinch qidirish-qutqarish ishlarini bajarishga yetadigan alohida elektr-energiya manbalari, maxsus kiyim-bosh, yetarli miqdordagi ichimlik suvi, suv zahiralari, oziq-ovqat, hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish uchun mo‘ljallangan bir qator ishlatilishi mumkin bo‘lgan maxsus buyumlar bilan ta‘minlangan.

Vazirliklar, konsernlar, birlashma, qo‘mitalarning harbiylashtirilgan malakali avariya-qutqaruv va boshqa maxsus tuzilmalari, bo‘linmalari favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda o‘z tasarrufi ostidagi ob‘yektlarda ishlab chiqarish avariyalari va halokatlarini bartaraf etishga, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida jabrlanganlarga yordam berish bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etishga mo‘ljallangan.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ular sodir bo‘lganda talofatlarini mumkin qadar kamaytirish maqsadida ob‘yektlarda Fuqaro muhofazasi boshliqlari kimyoviy, radioaktiv, portlash xavfiga qarshi maxsus tuzilmalar tuzadilar.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasining huquqiy asosini tashkil etuvchi hujjatlar bilan tanishib chiqdik. Bu hujjatlar talablarini chuqur o‘rganmasdan turib favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini samarali amalga oshirib bo‘lmaydi. Har bir rahbar xodim, har bir fuqaro muhofazasi bo‘yicha mutaxassis bu hujjatlarni bilib, o‘rganibgina qolmay, zarur bo‘lgan vaziyatlarda ulardan kelib chiqadigan talablarni amalda qo‘llay bilishi ham lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Rahmonov I, Vahobov U, Yoqubov H. “Favqulodda holatlarda shikastlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish”, T.: “FAN”, 2014.
2. Арустамов Э.А. Безопасность жизнедеятельности. Учебник. М.: 2012.
3. Tojiev M, Nigmatov I, Ilxomov M. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”. O quv qo‘llanma. T., 2012.
4. <https://www.fvv.uz/uploads/gazeta/26ac2e58c09b800b806bd519c9fe36ef.pdf>
5. <https://fayllar.org/i-nigmatov-m-tojiyev-favqulodda-vaziyatlar-va-fuqaro-muhofazas.html?page=10>
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Suv\\_toshqini](https://uz.wikipedia.org/wiki/Suv_toshqini)